

## TALABALAR RANGTASVIR VA QALAMTASVIR FALARIDAN TOPSHIRIQLARNI MUSTAQIL BAJARISHDA PERSPEKTIVAGA RIOYA QILISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHDA PEDAGOGIK TALABLAR

Sulaymanova Sevaraxon Bahodirjon qizi

FarDU o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7436210>

**Annotatsiya.** Maqolada rangtasvir va qalamtasvir topshiriqlarini talabalar mustaqil bajarishda perspektivaga rioya qilishda qanday metodlardan foydalaishi zarurligi va bolani yoshligidan perspektiva qonuniyatlarini to'g'ri usullarda shakllantirib borilishi lozimligi haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** rangtasvir va qalamtasvir, perspektiva, tasviriy san'at, ta'lim muassasalari, oila, badiiy idrok, tasavvur.

## ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТРЕБОВАНИЯ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ МЕТОДА НАБЛЮДЕНИЯ ПЕРСПЕКТИВЫ ПРИ САМОСТОЯТЕЛЬНОМ ВЫПОЛНЕНИИ УЧАЩИМИСЯ ЗАДАНИЙ ПО НАПРАВЛЕНИЯМ ЖИВОПИСИ И КАРАНДАШНОГО РИСУНКА

**Аннотация.** В статье представлена информация о том, какими приемами учащиеся должны соблюдать перспективу при самостоятельном выполнении заданий по раскрашиванию и рисованию карандашом, и как формировать законы перспективы у ребенка с раннего возраста.

**Ключевые слова:** живопись и рисунок карандашом, перспектива, изобразительное искусство, образовательные учреждения, семья, художественное восприятие, воображение.

## PEDAGOGICAL REQUIREMENTS FOR IMPROVING THE METHOD OF OBSERVING PERSPECTIVES WHEN STUDENTS INDEPENDENTLY COMPLETE TASKS IN THE AREAS OF PAINTING AND PENCIL DRAWING

**Abstract.** The article provides information about what methods students should use to observe perspective when performing coloring and pencil drawing tasks independently, and how to form the laws of perspective in the child from a young age.

**Keywords:** painting and pencil drawing, perspective, visual arts, educational institutions, family, artistic perception, imagination.

### KIRISH

Rangtasvir va qalamtasvir topshiriqlarni mustaqil bajarishda perspektivaga rioya qilishning dastlabki poydevori perspektiva qonun-qoidalariga amal qilishda boshlanadi.

*Perspektiva* so'zi (fran. *perspective*) "masofaga qarash" degan ma'noni anglatadi. Perspektiva – bu obyektlarni inson ko'zi qanday idrok etsa, shundayligicha tasvirlash. Perspektiva tasviriy san'atda tabiatdagi o'zgarishlarni shakli, hajmi va ranglar uyg'unligini kuzatish mumkin bo'lgan yagona tasvir qonuniyatidir.

Rangtasvir va qalamtasvir topshiriqlarni mustaqil bajarishda perspektivaga rioya qilish, oliy ta'limdagi psixologik muhit, uning badiiy-estetik tamoyilari talabalarda turli mazmundagi tushuncha va tasavvurlarni shakllanishida muhim o'rin tutadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Bolalarda tasviriy san'at bilan bog'liq dunyoqarashni shakllantirishda turli omillar turlicha ta'sir etadi. Bu omillar ichida ko'p bor ta'kidlaganimizdek, oila eng asosiysi hisoblanadi. Zero, bolada tasavvur, tushunchalarning shakllanish jarayoni aynan oilada boshlanishi va bu davr dunyoqarashni shakllanishining ham mazmun, ham hajm, xam sifat jihatidan eng salmoqli bosqichi ekanligini ilmiy dalillar bilan tavsiflab o'tdik. Shuning uchun ham tasviriy san'at bilan bog'liq tushuncha va tasavvurlarni shakllantirishda maktabgacha yosh davri asosiy davr hisoblanadi. Bu tasviriy san'at bilan bog'liq tushuncha va tasavvurlar tizimida tasviriy san'at bilan bog'liq tasavvurlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Insoniyat tarixini kuzatar ekanmiz, undagi eng mashhur, aqliy salohiyati yuqori, ma'naviy komil insonlar (B.Azimova, B. Jabborov, J. Majidov, M.Nabiyev, X. Egamov va boshqalar) aynan madaniyat va tasviriy san'at sohasida ham o'ziga xos salohiyatga ega bo'lganlar, ya'ni bizning tarixiy o'tmishimizda bunga ibratli misollar ko'p. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkin, tasviriy san'at yuqorida nomlari zikr etilgan rassomlarning yuqori cho'qqilarga erishishlarida muhim ahamiyat kasb etgan. Bu omilni tasviriy san'atda perspektivaga rioya qilishning ibratli uslublarini qo'llash jarayonida foydalanish maktabgacha yoshidagi bolalarda tasviriy san'atga oid tasavvurlarni shakllantirishning mazmunini belgilashdagi muhim shartlardan biridir. Shuning uchun ham bolalarda oiladan boshlab tasviriy san'atga oid tasavvur va tushunchalarni shakllantirish, unda ibratli namunalardan ham oqilona foydalanish bo'lajak mutaxassislarni, malakali kadrlarni tarbiyalashning dastlabki, ayni paytda eng muhim maqsadidir.

## **MUHOKAMA**

Endilikda maktabda o'quvchilarni tasviriy san'atga oid tasavvurlarini shakllantirishning eng asosiy shakli tasviriy san'at turlari haqidagi ma'lumotlar, perspektiva qonuniyatlar haqida elementar bilimlarni tarkib toptirishdir. Bu borada maktabda tasviriy va amaliy san'at, milliy badiiy hunarmandchilik, chizmachilik, tasviriy san'at to'garaklarning tarbiyaviy imkoniyatlari beqiyosdir. Qolaversa, tasviriy san'at o'qituvchisi tasviriy san'at turlari haqida muayyan bilimlar, ularni tadbqiq etish borasida amaliy ko'rsatish darajasida malakalariga ham egalar. Muhimi, bu ko'rsatmalarda "soxtalik" bo'lmasligi lozim, aks holda u yoki bu tasviriy san'atda perspektivaga rioya qilish bilimlari bilan tanishish jarayonida o'quvchilarda noto'g'ri tasavvur shakllana boshlashi mumkin. Dastlabki taassurot ta'sir kuchiga ko'ra muhimroq bo'lganligi bois uni "to'g'rilash" biroz murakkabroq kechishi mumkin

Maktabda o'quvchilarda tasviriy san'at darslarida tasviriy san'atda perspektivaga rioya qilish mazmunining tarkibiy qismlari ichida ham ta'sir kuchining yuqoriligi ham ta'sir vositalarining turli-tumanligi (maxorat darslari, elektron ko'rgazmali qurollar, asarlar, video filmlar, illyustrativ materiallar va h.k.) ham ta'sir vaqtining ko'pligi, muntazamlilik kasb etishi va boshqa jihatlari bilan tasviriy san'atda alohida e'tiborni talab etadi, ya'ni ularni tanlab olishda qat'iy pedagogik talablarga rioya qilish talab etiladi. Bu talablar ichida tasviriy asarlarning mazmuni va mohiyatiga ko'ra aynan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga moslarini qo'llash o'ta muhim pedagogik shartdir. Ayrim dalillarni sharhlash fikrimizga isbot bo'la oladi.

Hammaga ma'lumki mustaqillikka erishganimizdan so'ng tasviriy san'ati keyingi yillarda rivojlanib bormoqda. Biroq bu rivojlanishning salbiy holatlari ham mavjud. Rangtasvir va qalamtasvir san'atidagi perspektiva qoidalariga amal qilish sezilarlik darajada ko'rinib qoldi hamda bu salbiy holatlarning eng oddiy dalillari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- tasviriy san'atiga perspektiva qoidalariga to'liq etibor bermaslik natijasida tasviriy san'atning keng miqyosida ta'sir etishi oqibatida milliy rassomchilikning mazmunini buzilishi. Endilikda "Tasviriy san'at"ni anglash murakkablashib bormoqda. Bu jarayonga qiziqish holatida aynan anglash murakkab bo'lgan asarlar ommalashib bormoqda. Tabiiyki, o'quvchilar tomonidan ular milliy rassomchilik asari sifatida idrok etilmoqda;

- tasviriy san'at asarlari va uning janrlarini ommalashtirish borasida ayni paytda ma'lum ishlar amalga oshirilmoqda. Tasviriy san'at darsligida beriladigan "Geometrik jismlar", "Shtrixlash usullari", "Ranglash uslublari", "Rangtasvir", "Qalamtasvir", "Perspektiva" bo'limlarida milliy tasviriy san'atini saqlash, perspektivaga rioya qilish, uni targ'ib qilish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu ishlarni o'quvchi va talaba mahorat jihatidan shu ishga tayyor, qolaversa, rangtasvir va qalamtasvir san'atidan haqli rasomlar bilan birga juda yosh o'quvchilarning ham asarini ommalashishini faqat ijobiy holat deb baholab bo'lmaydi. Bu asarlarning ijodidagi mazmun perspektivaga rioya qilish qoidalarining asosiga oidligining o'zigina uning ijodkorlariga qat'iy talab qo'yishini taqazo etadi.

Bundan shunday xulosa chiqadiki, maktabda o'quvchilar Tasviriy san'at darslarida ishlashi yoki ijod etishi lozim bo'lgan tasviriy san'at asarlari qat'iy me'zonlar asosida saralanishi lozim. Ko'rgazmali namuna tom ma'nodagi namuna bo'lmog'i lozim, toki asarni perspektiva bog'liqligi, rang perspektivasi ham mazmun jihatdan hamohang idrok etish mumkin bo'lsin.

O'quvchilar uchun borliqdagi narsalar, manzara va natyurmot sifatida tavsiya etilayotgan illyustrativ materiallar namunalarining asar ko'rinishlarining perspektivaga rioya qilish me'yorlarga mavofiq bo'lishi lozim. Bu muammoning amaldagi holatini kuzatar ekanmiz, ayrim asarlarni perspektivaga rioya qilingan namunasi emas, balki unda perspektiva qoidalari, rang perspektivasi, havo prespektivasi yo'q deb e'tirof etish mumkin. Shuning uchun ham ularning barchasi ham maktab ta'lim yoshidagi o'quvchilarda to'g'ri tasviriy san'atga oid tasavvurlarni shakllantirishga xizmat qilmaydi. O'quvchilarda tasviriy san'atga oid tasavvurlarni shakllantirishning mazmunini belgilash muhim pedagogik tadbir sifatida muayyan mezonlar asosida amalga oshirilishi lozim.

Bugungi kunda talabalaridagi tasviriy san'atga oid qarashlar, tushunchalar, did borasida tasviriy san'atga qiziqishlar o'z mazmuniga ko'ra perspektivaga rioya qilishda milliy an'analarimizga zid tarzda rivojlanib bormoqda. Yuqorida keltirilgan dalillar bunga sabab bo'lmoqda. Bu jarayonlarning pedagogik jihatidan tomoni shundaki, hozirgi davr talaballari perspektivaga rioya qilishimizga nisbatan etiborsizlik, beparvolik, ta'bir joiz bo'lsa, perspektivaga qonun qoidalarini tao'la tushunib yetmaganligi sababidan, milliy tasviriy san'at ham buzilib borayapti. Zero chiroyli, to'g'ri chizishni bilish ham tasviriy san'atga oshno insonning xislatlaridan biridir. Shu nuqtai nazardan oliy ta'limda talabalar bilan tasviriy san'at, xususan, rangtasvir va qalamtasvirda ishlangan asarlarning xususiyatlari haqida suhbatlar olib borish pedagoglar, taniqli rassomlarning zimmasidagi muhim ta'limiy mas'uliyatdir. Shu bois ular o'z talaballari, shogirdlarining asari, dars mashg'ulotlarni, maxorat darslarini, mustaqil ishlayotgan ishlarini nazorat qilib borishlari talab etiladi, ya'ni ular ma'lum pedagogik mezonlarga mos bo'lishi lozim. Oliy ta'limda talabalarimizni rangtasvir va qalamtasvir topshiriqlarni mustaqil bajarishda perspektivaga rioya qilish metodikasini takomillashtirish nafaqat mazmun, balki shakl jihatidan ham rang-barang hamda keng ta'limiy imkoniyatlarga ega. Ular ta'lim maskanida bo'lib amaliyotlarga, maxorat darslariga qatnashish, ko'rgazma zallari, muzeylarga, tabiatning go'zal maskanlariga borish kabi rasm ishlash tadbirlar bo'lishi

mumkin. Bu tadbirlarning nazariy va amaliy foydalari shundan iboratki, avvalo pedagog o'zi muayyan darajadagi ta'sviriy san'at va perspektiva bilimlarga ega bo'lishlari maqsadga muvofiqdir. Bu ham oliy ta'limning talabalarda perspektivaga rioya qilish oid tasavvurlarni shakllantirishga qo'yiladigan pedagogik talablardan biridir. Shundagina talabalarida perspektivaga rioya qilish tasavvur va tushunchalarni shakllanishiga to'g'ri pedagogik rahbarlik qilishlari mumkin bo'ladi. Bu nufuz nazariy va amaliy tadbirlarning barcha bosqichlarida o'z samarasini beradi. Bunday tadbirlarni uyushtirish ham o'ziga xos pedagogik va psixologik tayyorgarlikni talab etadi.

Bu ta'limiy tadbirlarning birinchi bosqichida rejalashtirilayotgan maskan va unda ko'rilishi nazarda tutilayotgan ob'ektlar, jarayonlar xaqida tushuncha berilib, talabani perspektivaga rioya qilish yo'llarini o'ylashga majbur etiladi. Shu tariqa u tasviriy idrok etishga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Bu tadbir bevosita ob'ektni kuzatish jarayonining (ikkinchi bosqich) samarali kechishiga pedagogik kafolat bo'ladi.

Tadbirlarning uchinchi bosqichida ko'rilgan, kuzatilgan tabiat, ob'ekt muhokama etiladi. Bu usul talabalarda ko'rganlari haqida o'ylash, fikr yuritish, tasviriy idrok etish, ularga nisbatan perspektivaga rioya qilish yo'llarini o'ylashga undaydi. Tasviriy san'atga oid tasavvur va perspektivaga rioya qilish tushunchalarni shakllanishida esa shaxsiy mulohazalar muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarda go'zallik, nafosat, perspektivaga rioya qilish haqidagi mulohazalarning dastlabki kurtaklari shakllanadi. Bu holatlarga zid bo'lgan belgilarni anglay olishni o'zlashtirib borishlari esa tasviriy san'atning asosiy rangtasvir va qalamtasvir topshiriqlarni mustaqil bajarishda perspektivaga rioya qilish ko'nikmalarni tarkib toptirib boradi.

Tadbirning to'rtinchi bosqichi ma'lum vaqt o'tgandan keyin ko'rilgan, muhokama etilganlarni eslash bilan bog'liq. Uning tashabbuskori ham aynan pedagoglar bo'ladi. Aynan vaqt o'tishi bilan ko'p narsalar unutiladi, xotirada o'rin olgan tasavvurlar saralanadi. Ko'p xollarda ijobiy, yaxshi narsalar ham unutiladi. SHu nuqtai nazardan oliy ta'limda talabalarni rangtasvir va qalamtasvir topshiriqlarni mustaqil bajarishda perspektivaga rioya qilishni tashkil etuvchi xotiralarni tiklab uni mustaxkamlash muhim pedagogik jarayondir. Bu tadbir xotira uchun ham o'ziga xos mashq vazifasini o'taydi. Shuning uchun ham psixologiyada, ham pedagogikada xotira muammosi shaxsni shakllantirishning muhim qirrasini sifatida tadqiq etilgan.

Oliy ta'limdagi talabalarda rangtasvir va qalamtasvir topshiriqlarni mustaqil bajarishda perspektivaga rioya qilishlarni amaliy mashg'ulotlarda shakllantirish talabalarining shaxsiy qiziqish ko'lamlari, mazmuni va yo'nalishiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Shuning uchun ham pedagoglar talabalarining tasviriy faoliyatlarining ham moddiy, ham ma'naviy jihatdan qo'llab quvvatlashlari talab etiladi. Talaba tasviriy san'atni mustaxkam o'rganishida perspektivaga rioya qilishning o'rni katta ekanligini birgina rivojlangan mamlakatlar misolida kurish mumkin. Dunyoning eng rivojlangan mamlakatida tasviriy san'atni o'qitish uchun eng ko'p o'quv soati ajratiladi. Bundan mantiqiy fikr chiqaradigan bo'lsak, perspektiva qoyidalariga rioya qilish faqat talabalarda tasviriy san'at oid tasavvurlarni shakllantirish vositasigina emas, balki umuman shaxs kamolotida o'ta ta'sirchan, samarali vositadir.

## XULOSA

Talabalarda topshiriqlarni mustaqil bajarishda perspektivaga rioya qilish badiiy qadriyatlarining boshqa turlari ham samarali qo'llanilishi mumkin. Ayniqsa, tasviriy san'at yo'nalishlari va uning tarixiga oid ma'lumotlar nafaqat perspektiva qonun-qoidalari, tadbir etish uslublarini,

tasvirni aniq, to'g'ri va talab darajasida sifatli bajarishini ta'minlaydi hamda ularda tasvirlardan ta'lim-tarbiyaning boshqa jihatlarini, xususan talabalarda vatanparvarlik, milliy g'urur va milliy tuyg'u kabi sifatlarini shakllantirishda alohida e'tiborga molik.

## REFERENCES

1. M.SH.Nurmatova, SH.T.Hasanova. Rasm, buyum yasash va Tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi (O'quv qo'llanma). "Musiq". T.: 2012.
2. Н.М.Макарова. Рисунок и перспектива (теория и перспектива). «Мир». М.: 2012.
3. Ozodbek, S., Muhammadjon, O. R., & Sevaraxon, S. (2022). MARKAZIY OSIYO XALQLARI TASVIRIY SAN'AT TARIXINING FANDAGI O'RNI. *Research Focus*, 1(2), 259-263.
4. Сулайманова, С., Омонов, Д., & Аъзамжонов, А. (2022). АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИДАН БАДИИЙ ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТАСВИРИЙ САНЪАТНИ ЎҚИТИШ ЖАРАЁНИДА ФОЙДАЛАНИШНИНГ ЗАРУРИЯТИ. *Research Focus*, 1(2), 272-277.
5. Sulaymanova, S. B. Q. (2022). BADIY YO'NALISHDAGI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TASVIRIY SAN'ATDA PERSPEKTIVAGA RIOYA QILISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK NAZARIYA VA TA'LIM AMALIYOTIDAGI TAHLILI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 16-23.
6. Sulaymonova, S. B. Q. (2021). TASVIRIY SAN'AT ORQALI DUNYO SIVILIZATSIYASINI O'RGANISH OMILLARI. *Academic research in educational sciences*, 2(6), 730-735.
7. Сулайманова, С. Б. К. (2022). BADIY TA'LIMDA TALABALARNI O'QITISHDA SAMARALI DIDAKTIK PRINSIPLARDAN FOYDALANISH USULLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 143-150.
8. Barchinoy, K., Sevarakhon, S., & Mukhammadkodir, Y. (2021). EFFECTIVE METHODS OF TEACHING FINE ARTS AND DRAWING AT SCHOOL.
9. Sulaymanova, S. B. Q. (2022). BADIY OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISHGA BO'LGAN EHTIYOJNING OSHISHI VA UNING BUGUNGI HOLATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 89-96.
10. Юлдашева, Н. Э. (2020). Развитие профессиональной компетентности воспитателя дошкольной образовательной организации. *International scientific review*, (LXXIII), 82-84.
11. Юлдашева, Н. Э. MOTIVATIONAL AND NEED-BASED CHARACTERISTICS OF PHYSICAL CULTURE SPECIALISTS. *Pedagogika*, 30.
12. Egamberdievna, Y. N. (2021). IMPROVING THE PEDAGOGICAL COMPETENCE OF THE TEACHER OF PHYSICAL EDUCATION OF THE SECONDARY SPECIAL EDUCATION SYSTEM. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, 1(1.5 Pedagogical sciences).
13. Egamberdievna, Y. N. (2021). Formation of professional competence of the teacher in working with children in preschool. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 10(1), 141-147.

14. Юлдашева, Н. Э. (2022). СОВРЕМЕННАЯ КОНЦЕПЦИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В СИСТЕМЕ ВЫСШИХ СПЕЦИАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 2(18), 726-732.
15. Egamberdiyevna, Y. N. (2020). МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТИ ТАРБИЯЧИСИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK ZARURIYAT. *Педагогика ва психологияда инновациялар*, 8(3).
16. Mirzahamdavovna, K. B., Erkinovna, A. N., & Jumadillaevich, S. R. (2021). Use of Innovative Educational Technologies in Fine ARTS Classes of Higher Education Institutions. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 2(4), 25-27.
17. Sadikovna, S. G., Kurbonova, B., Akhmedova, N., & Sulaymanova, S. (2020). FUNDAMENTALS OF PROFESSIONALISM DEVELOPMENT ON THE EXAMPLE OF PRACTICAL EXERCISES ON FORMING THE SKILLS AND SKILLS OF FUTURE TEACHERS. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology*, 17(6), 8894-8903.